



**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK
MAHORAT MARKAZIDA 2025-YILDA
AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR
NATIJALARI SARHISOBI**



**2025
SARHISOB**



KIRISH

*O‘z ustida tinimsiz izlanish katta kashfiyotlarga yo‘l ochadi.
“Tarbiya kitobi” dan*

Hurmatli hamkasblar, qadrli ustozlar!

2025-yil bizning jamoamiz uchun o‘shish va rivojlanish davri bo‘ldi. Ushbu yil davomida biz belgilangan strategik maqsadlarni amalga oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va ta’limni rivojlantirish bo‘yicha muhim qadamlarga erishdik.


Hisobotimizda joriy yil davomida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, qiyinchiliklar va kelajak rejalarimiz haqida so‘z yuritamiz. Har bir muvaffaqiyat — bu jamoaviy mehnatimiz va hamkasblarimiz bilan o‘rnatilgan ishonchli aloqalarimizning natijasidir.

2025-yilda erishgan natijalarimiz markazimizning barqaror o‘shishiga va kelajakdagi maqsadlarimiz sari ishonchli qadam tashlashimizga zamin yaratdi. Ushbu hisobot faoliyatimizni yanada samarali rejalashtirish va kelajakda muvaffaqiyatlarga erishish uchun mustahkam poydevor bo‘ladi.

Barcha hamkasblarimizga qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun samimiy minnatdorchilik bildiramiz. Birgalikda erishgan muvaffaqiyatlarimizni davom ettirish yo‘lida hamkorlikni yanada mustahkamlashni maqsad qilganmiz.


Mazkur hisobotni shakllanishida pedagogik mahorat markazida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 127 nafar xodimlar, xususan, 47 nafar professor-o‘qituvchilar, 49 nafari bo‘lim xodimlari, 31 nafari xo‘jalik xodimlariga tashakkur izhor qilamiz.

Markaz professor-o‘qituvchi va xodimlar tarkibi va ilmiy salohiyat.





Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazining tarkibiy tuzilmasi



* Xodimlarning umumiy cheklangan soni (texnik, xizmat ko'rsatuvchi, o'quv-yordamchi xodimlar va professor-o'qituvchilardan tashqari) 45-47 nafar, shu jumladan, boshqaruv xodimlari 24-25 nafar (Sirdaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlarida 24 nafar).

Metodistlar 20-21 nafar (Qorqolpog'iston Respublikasida 21 nafar).

Kafedrlar soni hamda ularda faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilarning shita birliklari tinglovchilarni kontingenti asosida belgilanadi.

** Markazning budjetidan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

*** Texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar soni o'byekt ta'lim muassasalarini uchun o'rnatilgan me'yorlarda belgilanadi.





I. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGIGA KIRITILGAN TAKLIFLAR HAMDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

1.1. Takliflar:

2026-YILDA BAJARILADIGAN ISHLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21 iyundagi 231-sonli qaroriga asosan markazda 2026-yilda 500 o'rinli yangi bino qurilishi va 1200 o'rinli mavjud bino investitsiya dasturi asosida mukammal ta'mirlanishi belgilangan.



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil "28" - yanvardagi 23 - sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida markazda loyiha ishi va mikrodarslarni qabul qilishni onlayn tartibi ishlab chiqiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablar bilan aloqalarni kuchaytirish, hamkorlikdagi ishlarni davom ettiriladi.



Markaz kadrlar ilmiy salohiyati 24,4 % dan 35 % ga yetkazilishi rejalashtirilmoqda.

Markazda zamonaviy bosmaxona va "Jalinga" video studiyasi tashkil etilishi rejalashtirilmoqda.



Kelgusi istiqbolli rejada Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazini faqatgina mahorat markazi emas ZAMONAVIY METODIK BAZAGA EGA BOLGAN PEDAGOGLARNI YETISHTIRIB CHIQRADIGAN maskanga aylantirish.

Markazda Xitoy tajribasi asosida tajriba-sinov tariqasida "aqliy sinf" (qurilmalar), "aqliy doska", "aqliy kompyuter" olib kelish orqali raqamlashgan, innovatsion darslar tashkil etiladi.






II. ILMIY-METODIK KENGASH, ISHLAB CHIQARISH YIG'ILISHIDA MUHOKAMA ETILGAN MASALALAR VA SAMARADORLIK:

2.1. Kengashlar, ishlab chiqarish yig'ilishlari soni va asosiy masalalar:

Ilmiy-metodik kengash va ishlab chiqarish yig'ilishi faoliyati



Hududiy markaz Kengashi o'z faoliyatini 2025-yil 11-yanvarda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari yig'ilishda tasdiqlangan reja asosida olib bordi. Yil davomida reja bo'yicha 6 ta kengaytirilgan kengash yig'ilishi va 5 ta navbatdan tashqari yig'ilish o'tkazildi. Reja asosida o'tkazilgan kengash yig'ilishi kun tartibida 14 ta asosiy, 29 ta har xil masala ko'rib muhokama etildi. Shuningdek, rejadani tashqari o'tkazilgan Kengash yig'ilishi kun tartibida 13 ta asosiy, 15 ta har xil masala muhokama etildi.

O'tkazilgan yig'ilishlarda muhokama etilgan masalalardan:

1. Malaka oshirish ishlarini takomillashtirish bo'yicha 20 ta masala muhokama etildi. Jumladan:

a) Pedagogik markaz, kafedra va bo'limlarning yillik ish rejalari, kafedra professor-o'qituvchilarining o'quv yuklama va shaxsiy ish rejalari, ayrim yo'nalishlar bo'yicha ishchi o'quv reja hamda dasturlarni tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM



Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/1- qarori).

b) Malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun "Rivojlanish va yuksalish daftari" loyihasini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/4.1- qarori).

d) Mahmudxo'ja Behbudiy asarlariga illyustratsiya chizish bo'yicha ijodiy tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom'ni tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/4.2- qarori).

e) Markaz tinglovchilari o'rtasida "Kelajak o'qituvchisi" tanlovini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom'ni tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/4.3- qarori).

f) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 402-sonli buyrug'ining ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida (SamVPMM Kengashining 27-fevralda o'tkazilgan 1-son yig'ilishi 1/1-qarori).

g) Pedagogik markaz va viloyat umumta'lim maktablarida "Kasbiy rivojlantirish kuni" va "Kasbiy rivojlantirish soatlari"ni tashkil etish holati to'g'risida (SamVPMM Kengashining 27-fevralda o'tkazilgan 1-son yig'ilishi 1/2-qarori).

h) "Zamonaviy ta'lim: PIRLS va TIMSS", "Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuv", "Boshlang'ich ta'limda STEAM yondashuvi" nomli maqsadli qisqa muddatli kurslarning o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 27-fevralda o'tkazilgan 1-son yig'ilishi 1/3.3-qarori).

i) Professor-o'qituvchilar tomonidan tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishlab chiqilgan fan dasturlari, o'quv-uslubiy materiallarning davlat talablari asosida tayyorlanganligini, o'quv-uslubiy materiallarning ehtiyojga asoslanganligi, zamonaviy talablar asosida ishlab chiqilganligini, Davlat talablariga mosligi tahlili to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 2/1-qarori).

j) "O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlikning innovativ modeli – "O'qituvchi jomadoni" konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 2/3.1-qarori).

k) "Dolzarb 90 kunlik" loyihasi doirasida tayyorlangan "Pedagoglarning kasbiy-metodik ko'nikmalarini rivojlantirish" nomli maqsadli o'quv kurs dasturini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 16-iyunda navbatdan tashqari o'tkazilgan 3-sonli yig'ilish 3/1- qarori).

l) Ijtimoiy himoya qilish maqsadida kasbiy qayta tayyorlash kursi to'lovini 50%ga qisqartirish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 16-iyunda navbatdan tashqari o'tkazilgan 3-sonli yig'ilish 3/2- qarori).

m) O'quv jarayonini sifatli tashkil etish va tinglovchilar faolligini nazorat qilish yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar va malaka oshirish kursi rejalarining bajarilishi hamda jurnallarni yuritilish holati to'g'risida (SamVPMM Kengashining 26-iyunda o'tkazilgan 3-son yig'ilishi 3/1-qarori).



n) Viloyat ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan mahorat darslari tahlili hamda pedagog-xodimlarga ko'rsatilayotgan uzluksiz metodik xizmatni samarali mexanizmlarini tashkil etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/2-qarori).

o) SamvilPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/3-qarori).

p) Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ta'lim sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilish muhokamasi (SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 4-sonli yig'ilish 4/1- qarori).

q) SamVPMMda 2025-yilning ikkinchi yarimida rejalashtirilgan vazifalar, ishchi o'quv reja va dasturlarning bajarilishi, o'quv-metodik majmualarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 4-sonli yig'ilish 4/2- qarori).

r) Kasbiy va pedagogik, pedagogik, kasbiy qayta tayyorlash kurslarining ishchi reja, dastur hamda o'quv metodik materiallarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 9-oktabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 5-sonli yig'ilish 5/1- qarori).

s) SamVPMMda yo'nalishlar kesimida loyiha va mikrodars mavzularini yangilash hamda qabul qilish shaklini o'zgartirish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 9-oktabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 5-sonli yig'ilish 5/2- qarori).

t) SamVPMMda va maktablarda "Kasbiy rivojlantirish kuni" hamda "Kasbiy rivojlantirish soatlari" tashkil etish holati to'g'risida (SamVPMM Kengashining 31-oktabrda o'tkazilgan 5-son yig'ilish 5/1-qarori).

u) "Kembridj tajribasi asosida maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish" nomli qisqa muddatli kursining o'quv dasturini tasdiqlash to'g'risida SamVPMM Kengashining 31-oktabrda o'tkazilgan 5-son yig'ilish 5/3.3-qarori).

Kafedralar faoliyatini tahliliga oid quyidagi 4 ta masala muhokama etildi:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida bajarilishi holati to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/2-qarori).

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi hamda Tillarni o'qitish metodikasi kafedralarida bajarilishi holati to'g'risida (SamVPMM Kengashining 26-iyunda o'tkazilgan 3-son yig'ilishi 3/2-qarori).

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Boshlang'ich, maktabgacha va



maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida bajarilish holati to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/1-qarori).

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalarni Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida bajarilishi holati to'g'risida (SamVPMM Kengashining 31-oktabrda o'tkazilgan 5-son yig'ilish 5/2-qarori).

2. Professor-o'qituvchi va xodimlar faoliyatiga doir 31 ta masala muhokama etildi:

a) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan, hamkorlik memorandum va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/4.4- qarori).

b) Rivojlanish va yuksalish majmuaviy tadbirlarni tartibini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/4.5- qarori).

d) Pedagogik markaz xodimlarining lavozim maoshiga nisbatan ustama belgilash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/4.7- qarori).

e) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida (SamVPMM Kengashining 27-fevralda o'tkazilgan 1-son yig'ilishi 1/3.2-qarori).

f) Pedagogik markaz professor-o'qituvchi, bo'lim xodimlari tomonidan va ustoz-shogird tizimi asosida tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 27-fevralda o'tkazilgan 1-son yig'ilishi 1/3.4-qarori).

g) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktorining Koreya Milliy ta'lim universiteti hamda "Tabassum qilayotgan yeryong'oq bolalar jamg'armasi" taklif xatiga binoan Koreya davlatiga tashrifi to'g'risida (SamVPMM Kengashining 27-fevralda o'tkazilgan 1-son yig'ilishi 1/3.5-qarori).

h) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi nashri hisoblangan ("Bilim-Ilmiy Faoliyat" mas'uliyat cheklangan jamiyati muassisligidagi) "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" jurnalini O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasiga doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etiladigan nashrlar ro'yxatiga kiritishni tavsiya qilish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 27-martda navbatdan tashqari o'tkazilgan 2-sonli yig'ilish 1/2- qarori).

i) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 27-martda navbatdan tashqari o'tkazilgan 2-sonli yig'ilish 1/3.1- qarori).



j) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari, bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 27-martda navbatdan tashqari o'tkazilgan 2-sonli yig'ilish 1/3.2- qarori).

k) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.2-qarori).

l) Pedagogik markaz o'qituvchilarini katta o'qituvchilik lavozimiga tanlovga qadar o'tkazish haqida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.3-qarori).

m) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi "“Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida”gi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta'lim muassasalariga ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risida”gi 297-sonli hamda 2025-yil 5-fevraldagi 37-sonli buyruqlariga asosan "Tanlovga binoan lavozimlarga saylash" to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.4-qarori).

n) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarining dissertatsiya mavzulari, ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.5-qarori).

o) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari, bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.6-qarori).

p) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi hamda xodimlarining Malayziyaning Utara Universiteti (#554 in QS World University Rankings 2025) pedagoglar uchun o'qituvchilarni tayyorlash va sertifikatlash dasturiga ishtiroki xarajatini qoplab berish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.8-qarori).

q) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlarini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi fidoyisi" hamda "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishonlariga tavsiya etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.11-qarori).

r) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 16-iyunda navbatdan tashqari o'tkazilgan 3-sonli yig'ilish 3/3.2- qarori).

s) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 26-iyunda o'tkazilgan 3-son yig'ilishi 3/3.1-qarori).

t) Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 26-iyunda o'tkazilgan 3-son yig'ilishi 3/3.2-qarori).



u) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgorlar ishlari muhokamasi to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/4.2-qarori).

v) Hududiy markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/4.4-qarori).

x) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Ekspert komissiyasi (nashr ishlari bo'yicha) tarkibini o'zgartirish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/4.5-qarori).

y) SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/4.6-qarori).

z) SamVPMM professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 4-sonli yig'ilish 4/4- qarori).

o') O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida"gi 1030-sonli qaroriga asosan oylik ish haqiga qo'shimcha haq to'lash bo'yicha talabgor ishi muhokamasi to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 4-sonli yig'ilish 4/5.1- qarori).

g') SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 4-sonli yig'ilish 4/5.2- qarori).

sh) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlarining Ozarbayjon Davlat Pedagogika Universitetining Guba filialida rejalashtirilgan stajirovka xarajatlarini qoplab berish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 4-sonli yig'ilish 4/5.3 qarori).

ch) Tinglovchilardan olingan so'rovnomalar tahlili to'g'risida (SamVPMM Kengashining 31-oktabrda o'tkazilgan 5-son yig'ilish 5/3.1-qarori).

ng) SamVPMM professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 31-oktabrda o'tkazilgan 5-son yig'ilish 5/3.2 -qarori).

a1) SamVPMM professor-o'qituvchi va bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 31-oktabrda o'tkazilgan 5-son yig'ilish 5/3.4 -qarori).

a2) Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchi va xodimlarining Xitoy Xalq Respublikasining YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi (Teacher Education Centre, UNESCO; Research Institute for International and Comparative Education, SHNU)da rejalashtirilgan stajirovka xarajatlarini qoplab



berish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 31-oktabrda o'tkazilgan 5-son yig'ilish 5/3.4 -qarori).

Markaz faoliyatiga doir 13 ta masala muhokama etildi:

a) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 18-dekabrda 404-sonli buyrug'ining 4-bandiga ko'rsatilgan tavsiya to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/2- qarori).

b) Markaz professor-xodimlari faoliyatining besh kunlik ish kuniga o'tkazish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/3- qarori).

d) Markaz budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi tushumini ko'paytirish va 2025-yilga xarajatlar smetasini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 11-yanvarda navbatdan tashqari o'tkazilgan 1-sonli yig'ilish 1/4.6- qarori).

e) Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 27-fevralda o'tkazilgan 1-son yig'ilishi 1/3.1-qarori).

f) *"Korrupsiya-jamiyatni yemiruvchi omil"* ekanligi haqida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 27-martda navbatdan tashqari o'tkazilgan 2-sonli yig'ilish 1/1- qarori).

g) Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.7-qarori).

h) Markaz professor-xodimlari faoliyatining besh kunlik ish kuniga o'tkazish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.9-qarori).

i) *"Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazining ichki mehnat tartibi qoidalari"*ga o'zgartirish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 6-mayda o'tkazilgan 2-son yig'ilishi 1/3.10-qarori).

j) Kengash a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 16-iyunda navbatdan tashqari o'tkazilgan 3-sonli yig'ilish 3/3.1- qarori).

k) SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/4.1-qarori).

l) SamVPMM budjetdan tashqari maxsus hisob raqamiga 2025-yilda mablag' topish va yotoqxona uchun to'lovlar tartibini belgilash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 29-avgustda o'tkazilgan 4-son yig'ilish 4/4.3-qarori).

m) SamVPMMda jamoatchilik kengashi yo'riqnomasi va tarkibini tasdiqlash to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 26-sentabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 4-sonli yig'ilish 4/3- qarori).

n) SamVPMM Kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida (SamVPMM Kengashining 2025-yil 9-oktabrda navbatdan tashqari o'tkazilgan 5-sonli yig'ilish 5/3- qarori).

Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va uni yanada takomillashtirish masalalari SamVPMM Kengashining doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. SamVPMM



Kengashida ko‘riladigan har bir masala kengash a‘zolarining hamjihatliklari va faolliklari ruhida muhokama etildi.

SamVPMM Kengash o‘z faoliyatini qonuniylik prinsiplariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga hisobdorlik va uning nazorati ostida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirildi.

SamVPMM *direktori huzuridagi ishlab chiqarish yig‘ilishi* 2025-yil 11-yanvarda bo‘lib o‘tgan SamVPMM Kengashining navbatdan tashqari yig‘ilishida tasdiqlangan reja asosida faoliyat olib bordi. Reja bo‘yicha 11 ta, navbatdan tashqari 2 ta ishlab chiqarish yig‘ilishi o‘tkazilgan bo‘lib, rejadagi yig‘ilishlarda 29 ta masala va navbatdan tashqari yig‘ilishlarda 4 ta masala muhokama etildi.

O‘tkazilgan yig‘ilishlarda muhokama etilgan masalalardan: malaka oshirish ishlarini takomillashtirish bo‘yicha 20 ta masala, kafedralar faoliyatini tahliliga oid 4 ta masala, professor-o‘qituvchilar faoliyatiga doir 31 ta masala, markaz faoliyatiga doir 13 ta masala va muhokama etildi.

2.2. Ijro intizomi va fuqarolar murojaatlari yuzasidan olib borilgan ishlar:



Markazida **hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish va ijro intizomi** monitoringini olib borish tartibini takomillashtirish hamda Xalq ta’limi vazirligining 2011-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi tizimida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish va ijro intizomi monitoringini olib borish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 6-sonli buyrug‘i asosida markazda ish yuritish jarayoni tashkil etilgan. 2011-yil 15-dekabrdagi 04-4152-sonli xatining ijrosi yuzasidan namunada ko‘rsatilgan ilova asosida markazda hujjatlarni qayd qilish daftarlari yuritilmoqda.




Pedagogika markazida yuqori tashkilotlardan kelgan me'yoriy hujjatlar uchun maxsus yanvar oyidan boshlab hujjatlar **EDO.IJRO.UZ idoralararo hujjat aylanish tizimi** orqali ro'yxatga olinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyish va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror, farmoyishlari va yuqori tashkilotlardan kelgan hujjatlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida har doim o'tkaziladigan direktori huzuridagi ishlab chiqarish yig'ilishlarida muhokama etiladi. Markazga 2025-yil yanvardan dekabrgacha **yuqori va turli tashkilotlardan jami 539 ta** hujjatlar kelib tushgan shundan 384 tasi yuqori tashkilotlardan, turli tashkilotlardan esa 154 ta xat kelib tushgan. Kelib tushgan hujjatlar o'z vaqtida **EDO ijro tizimiga** ijroga yo'naltirilgan bo'lib, mas'ul xodimlar tomonidan ijrosi ta'minlanmoqda. Kelib tushgan hujjatlar ijrochilar tomonidan o'z vaqtida markaz professor-o'qituvchilariga axborot almashish maydoni nomli (t.me\markazaxborot) telegramm kanali orqali yetkazilmoqda.

Devonxona bo'limida asosiy faoliyatga doir buyruq, tinglovchilar faoliyatiga doir buyruq daftarlari, hududiy markazdan chiqish xatlarni ro'yxatga olish daftari, hududiy markazdan chiquvchi xatlar, chora-tadbirlarni ro'yxatga olish, bildirgilarni ro'yxatga olish daftarlari va murojatlar bilan ishlash daftari tashkil qilingan. 2025-yilida 104 ta asosiy faoliyatga doir buyruqlar, 9 ta chora-tadbirlar, 60 ta tinglovchilar faoliyatiga doir buyruqlar qayt etilgan. Hududiy markazdan yil davomidan hozirgi kunga qadar 344 ta xat chiqqan, cabinetpm2.gov.uz platformasiga jami 4 ta murojat kelib tushgan bo'lib, bu murojaatlarning ijrosi vaqtida ta'minlangan.

2.3. Inson resurslarini boshqarishda innovatsiya:

Hududiy markazida 2025-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni amalga oshiruvchi davlat ta'lim muassasalariga ma'muriy-boshqaruv va pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to'g'risida"gi 297-sonli hamda 2025-yil 5-fevraldagi 37-sonli buyruqlariga ko'ra ochiq tanlov orqali 42 nafar xodim ishga qabul qilindi.





O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “1-oktabr murabbiylar kuni” munosabati bilan Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i Fayziyeva Mutabar Mardonovna Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasida dotsenti Okilova Kamola Sadulloyevna hamda Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi ingliz tili fani metodisti Narkulov Ulug‘bek Mamadaliyevichlar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 24-sentabrdagi qarori ko‘ra **“Xalq ta’lim a’lochisi”** ko‘krak nishoni bilan taqdirlandilar.

Markaz direktori tomonidan yil davomida 31 nafar xodimlarga bir lavozim oklad miqdorida moddiy yorgam, Mahmudxo‘ja Behbudiyning 150 yillik yubileyiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil etishdagi faol ishtiroki, mehnat faoliyati natijadorligi, maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mas’uliyat va fidoyiligini inobatga olib 9 nafar xodimlar 1 500 000 so‘mdan, 118 nafar xodimlar Navro‘z bayrami munosabati bilan, “Qurbon hayiti bayrami” hamda yarim yil yakuni munosabati bilan 126 nafar, 1-sentabr – Mustaqillik kuni bayrami munosabati bilan 110 nafar, “1-oktabr murabbiylar kuni” bayrami munosabati bilan 93 nafar, “8-dekabr – Konstitutsiya kuni” bayrami hamda yil yakuni munosabati bilan 128 nafar xodimlar moddiy rag‘batlantirildi. Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasida mudiri Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevnaga Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilib, tegishli diplomga ega bo‘lganligi uchun 7 000 000 so‘m, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti Kadirov Tulkin Baxridinovich dotsent diplomga ega bo‘lganligi uchun 5 000 000 so‘m miqdorida mukofotlandi.



2.4. Ta’lim sifati nazorti:

Professor-o‘qituvchi shaxsiy ish rejasi”sining belgilangan “Vaqt me’yorlari” asosida to‘g‘ri, talab darajasida rejalashtirish va pedagog portfoliosiga to‘g‘ri va sifatli joylashtirish yuzasidan tartib ishlab chiqilda: tartibda professor-o‘qituvchilar tomonidan bajariladigan ish turlarining minimal tavsiyaviy ish hajmi va “Professor-o‘qituvchi shaxsiy ish rejasi”siga kiritilishi lozim deb topilgan ish turlari belgilab berildi;

“Professor-o‘qituvchi shaxsiy ish rejasi”ga kiritiladigan ish turlari soat miqdorining minimal hajmi (tavsiyaviy)



	Kafedra mudiri	Professor	Dotsent	Katta o'qituvchi	O'qituvchi
O'quv ishlari	455	504	551	598	659
Ilmiy-metodik	400	400	300	260	226
Ilmiy-tadqiqot	350	350	330	260	280
Tashkiliy-metodik	235	186	259	220	210
Ma'naviy-ma'rifiy	100	100	100	202	165
JAMI	1540	1540	1540	1540	1540


“Professor-o‘qituvchi shaxsiy ish rejasi”ga (hamda kafedra regasiga) kiritiladigan ish turlari (yuklama miqdori professor-o‘qituvchining 1,0 shtat birligi asosida hisoblanadi)

№	Ish turlari	“Professor-o‘qituvchi shaxsiy ish rejasi”ga kiritiladi
1	Darslik, o‘quv qo‘llanma metodik qo‘llanma va ko‘rsatmalarni (shu jumladan, elektron) ёзиш ҳамда нашрга тайёрлаш.	Darslik – Kafedra bo‘yicha 1 ta
		O‘quv qo‘llanma – Kafedra bo‘yicha 1 ta
		Uslubiy qo‘llanma – 1,0 shtat birligida ishlayotgan professor-o‘qituvchi kamida 1 ta
2	Malaka oshirish kurslarida (turli shakllarda) o‘qish	Har bir professor-o‘qituvchi kamida 2 ta
3	Ilmiy maqola, tezis tayyorlash va nashr etish, ixtiro (patent), dasturiy vositalar yaratish	Scopus – Kafedra bo‘yicha kamida 1 ta
		OAK tasarrufidagi jurnallarda – 1,0 shtat birligida ishlayotgan professor-o‘qituvchi kamida 2 ta
		Konferensiyalarda tezislar – 1,0 shtat birligida ishlayotgan professor-o‘qituvchi kamida 2 ta
		Dasturiy mahsulot (elektron darslik, qo‘llanma, dasturiy vosita) – Kafedra bo‘yicha kamida 2 ta
4	Pedagoglar uchun “Mahorat darslari” hamda seminar-treninglar tashkil etish va o‘tkazish	Respublika, viloyat miqyosida seminar-treninglar tashkil etish va o‘tkazish – 1,0 shtat birligida ishlayotgan professor-o‘qituvchi kamida 1 marta
		Viloyat va tuman miqyosida “Mahorat




		dars”lari (online va offline shaklda) – 1,0 shtat birligida ishlayotgan professor-o‘qituvchi kamida 5 marta
		Umumta’lim maktabida sinfda o‘quvchilar uchun fan kalendar rejasi asosida “Mahorat darsi” (offline) – 1,0 shtat birligida ishlayotgan professor-o‘qituvchi kamida 4 soat

Malaka oshirish kursiga qatnashishdan maqsadingiz nima? (Bir nechta variantni tanlashingiz mumkin)




Darslar qanday shaklda tashkil etilishi ma'qul? (Bir nechta variantni tanlashingiz mumkin)






Malaka oshirishning qanday shaklini ma'qul ko'rasiz?



Kurs davomida qanday shakldagi resurs(kontent)lar orqali dars o'tilishi kerak? (Bir nechta variantni tanlashingiz mumkin)




O'zingizni qaysi sohalarda bo'shliqlarim bor deb o'ylaysiz?






Kursning samaradorligini oshirish uchun nima qilish kerak deb hisoblaysiz?



- Kursning davomiyligini qisqartirish
- Ko'proq amaliy mashqlar kiritish
- Darslarning interaktiv bo'lishini ta'minlash
- Qo'shimcha qo'llab-quvvatlash yoki konsultatsiyalar berib borish
- Maktabda seminar-treninglarni ko'proq tashkil etish
- Boshqalar

Kurs tugagandan so'ng Sizni qanday qo'shimcha qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi?



- Onlayn konsultatsiyalar
- Qo'shimcha resurslar (video, maqolalar)
- Ish joyida qo'llab-quvvatlash
- Boshqalar

Tinglovchilardan har oyda olingan so'rovnoma natijalari, berilgan taklif va tavsiyalar professor-o'qituvchilar e'tiboriga havola etilib, mashg'ulotlar jarayonida berilgan takliflarga amal qilish tavsiyasi berib borildi.

Jumladan: sentabr-oktabr oylarda quyidagi guruhlar ishtirok etishgan. So'rovnoma natijalari, tinglovchilar tomonidan berilgan taklif va tavsiyalar markazning Ilmiy kengashida xodimlar e'tiboriga havola etildi.



2.5. Uzlüksiz kasbiy ta'lim va tashkiliy-metodik faoliyat ko'rsatkichlari:



“Mahoratli pedagog maktabi” nomli yangi loyiha doirasida yanvar-iyun oylarida viloyatimizdagi umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan pedagogik mahorat, tajribaga ega bo'lgan va faoliyati davomida yaxshi natijalar ko'rsatgan va xizmatlari e'tirof etilgan **56 nafar o'qituvchilar** tomonidan markaz tinglovchilariga mahorat darslari o'tildi. Ushbu darslar onlayn translyatsiya qilindi. Umumta'lim maktablari o'qituvchilari kuzatishi va o'rganishi uchun o'tilgan darslarni videokontenti “Mahorat akademiyasi” platformasiga joylashtirildi.



“Kelajak o'qituvchisi” loyihasi malaka oshirish kursiga kelgan tinglovchilar o'rtasida 8 ta yo'nalishda o'tkazilgan tanlovlar bo'yicha 33ta sertifikat tanlov g'oliblariga taqdim etildi. Tanlov Pedagoglarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish,



o‘zaro tajriba almashish, ijodkorlik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 15-may kuni maktab ta’limida amalga oshirilgan islohotlar va kelgusidagi asosiy vazifalar to‘g‘risida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklariga har bir tuman (shahar)dan 5 nafardan maktab o‘qituvchilarini xorijga malaka oshirishga yuborish vazifasi belgilangan. Topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tuman (shahar)lardan 5 nafardan maktab o‘qituvchilarini xorijga malaka oshirishga yuborishni tashkil etish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si ishlab chiqildi.

1. Xorijiy malaka oshirish dasturlarini tahlil qilish va ehtiyojlarni aniqlash.

2. Xorijiy davlatlardagi malaka oshirish dasturlarini tanlash va kelishuvga erishish masalasi Hududiy Pedagogik mahorat markazlari zimmasiga yuklatildi.

Ushbu topshiriqlarni ijrosini taminlash maqsadida Samarqand viloyatidagi aniq va tabiiy fanlar , boshlang‘ich va ingliz tili fanlari mentor o‘qituvchilaridan 80 nafar mentor o‘qituvchi saralandi.

Xorijiy davlatlardagi malaka oshirish dasturlarini tanlash va kelishuvga erishish masalasi bo‘yicha Finlandiyaning “Nordik” universiteti, Ozarbayjon davlatining “Guba” universiteti, Turkiyaning “Yildiz texnik”, “Istanbul texnik”, “Mug‘la” universitetlari bilan kelishuvga erishildi va dasturi o‘rganilib Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasiga taqdim etildi.



2.6.Fanlarni rivojlantirish:

Rivojlantiruvchi va yuksaltiruvchi kurslarni 20 marotaba ochilish va bilimlar sarhisobi tadbirlari tashkil etildi. 156 nafar tinglovchilarga “Eng yaxshi loyiha ishi” nominatsiya g‘oliblariga sertifikatlar bilan taqdirlandi.



Rivojlanish va yuksalishni qo'llab-quvvatlovchi majmuaviy tadbirlar

12 Dushanba

Kafedra va bo'limlar
seminarlari

11 Seshanba

Kutubxonaga tashrif

15 Chorshanba

Hamkorlik tajribalari

9 Juma

Kasbiy rivojlantirish
tadbirlari

10 Payshanba

Jamoani jipslashtirish
va ruhlantirish

20

• Rivojlantiruvchi va
yuksaltiruvchi
kurslarni ochilish va
bilimlar sarhisobi
tadbirlari tashkil
etildi.

Xorijiy malaka (stajirovka)

Pedagogik mahorat markazining 11 nafar professor-o'qituvchi va xodimlari Xorijda malaka oshirib keldi. Malayziyaning Utara Universitetiga A.Ibragimov, G.Fayzullayeva, N.Ruziyeva, T.Zaynizoda; Ozarbayjon davlat pedagogika universitetining Guba filialiga X.Bekmirzayev, M.Rahimqulova, D.Safarova; Xitoy davlatining YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazida A.Sobirov, A.Samiyayev, U.Norqulov va N.Shanazarovalar malaka oshirib sertifikatlar olishdi.



Xalqaro, xorijiy va mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari



Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi rahbar va pedagog kadrlarining xorijiy oliy ta'lim tashkilotlariga 2025-yildan boshlab maqsadli ravishda malaka oshirish (stajirovka)ga yuborilganlik holati to'g'risida
MALUMOT

Nö	F.I.Sh.	Lavozimi	Yuborilgan davlat	Malaka oshirgan ta'lim tashkiloti	Malaka oshirgan vaqti
1	Bobirov Anvar Kuvvatdilkovich	Samarqand viloyati pedagogik markazi direktori	Xitoy	YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi	27.11.-09.12.2025
2	Samuyev Anvar Kadirovich	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri	Xitoy	YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi	27.11.-09.12.2025
3	Narinkulov Ulug'bek Mamadaliyevich	Ingliz tili metodikasi	Xitoy	YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi	27.11.-09.12.2025
4	Shamzarova Nigora Abrikulovna	Davlat tili metodikasi	Xitoy	YUNESKO qoshidagi o'qituvchilar ta'lim markazi	27.11.-09.12.2025
5	Ibragimov Alimjon Aminullayevich	Pedagogika fanlari doktori, professor	Malayziya	Malayziyaning Utara Universiteti	24.06.-01.08.2025
6	Fayzullayeva Gulchisra Sharipboyevna	Pedagogika fanlari doktori, dotsent	Malayziya	Malayziyaning Utara Universiteti	24.06.-01.08.2025
7	Zaynabova Tasanna	Biologiya fani metodikasi	Malayziya	Malayziyaning Utara Universiteti	24.06.-01.08.2025
8	Ra'ayeva Nigora Zohidjonovna	Ingliz tili fani katta o'qituvchi	Malayziya	Malayziyaning Utara Universiteti	12.10.-19.10.2025
9	Rasimqulova Madhura Ilmurovna	Ma'rifatgacha, boshlang'ich va umumiy ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri	Ozarbayjon	Ozarbayjon davlat pedagogika universitetining Guba filiali	12.10.-19.10.2025
10	Bekmatmuratov Nazim Salimovich	Ushbu ta'limni tashkil etish bo'linma boshlig'i	Ozarbayjon	Ozarbayjon davlat pedagogika universitetining Guba filiali	12.10.-19.10.2025
11	Sapozova Dilshoda Adashovna	Geografiya va iqtisodiy bilim asoschisi fani metodikasi	Ozarbayjon	Ozarbayjon davlat pedagogika universitetining Guba filiali	12.10.-19.10.2025





2.7. Media rejasining bajarilishi:



Pedagogik mahorat markaz faoliyati ochiqqligini ta'minlash maqsadida markaz to'g'risidagi axborotlar rasmiy veb-saytda, ijtimoiy tarmoqlarda hamda OAV bilan hamkorlikda muntazam joylashtirilib, yangilanib borilmoqda. Bugungi kunda markazining ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar soni Telegram 3578 tani tashkil etsa, Facebookda 6847 ta hamda Youtubeda 9444 nafar obunachi mavjud.

Ushbu kanallarda doimiy Jarayon, So'ragan edingiz, Qonunchiliklardagi yangiliklar, Bugun, Tinglovchilar fikri, Ayni paytda, Jamoani jipslashtirish va ruhlanirish, Metodik_tavsiya, Mahorat darsi, Tizimli seminar, Kecha va bugun, Yutuqlarimiz, OAVda biz..., Ta'linga mening hissam, Men onam bilan faxrlanaman, Metodik yordam, Yangiliklar, Kitob mutolaasi, Ilmga baxshida umr, Kun hikmati, Ochiq muloqot, Ogohlik davr talabi, Qaror va ijro, Xorijiy hamkorlik, Mening darsim, Mahoratli pedagog, Foto nigoh, Fikrat, Biz korrupsiyaga qarshimiz kabi ruknlarda doimiy ma'lumotlar tayyorlanib qo'yib borilmoqda.

Markaz faoliyatiga oid xabarlar, jami 2025-yil yanvar-dekabr oylari davomida 1009 marta post-xabarlar berildi.

Shundan, Televideniya 89 marta, radioda 43 marta chiqishlar qilindi. Ijtimoiy tarmoqlarda to'liq yangi xabarlar yoritilgan shundan 404 ta video matnli, 605 ta rasmlar matnli birgalikda berildi.

2.8. ARM faoliyatining natijadorligi:

Markaz ARM jamg'armasida 17212 ta siyosiy, ilmiy-uslubiy, badiiy adabiyotlar va kasbga oid lug'at hamda darsliklar mavjud bo'lib, 50 o'rinli o'quv xonasida malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, markazning professor-o'qituvchilariga va xodimlarga xizmat ko'rsatildi.


Markazning tinglovchi va xodimlarining har oylik kutubxona va axborot-resurs markazida murojatlari holati tahlili olib boriladi va bu qatnov oyiga 1550 tani tashkil etadi.



Axborot-resurs markazi uch bo'limdan iborat bo'lib, ular (o'quv zali, media bo'limi, abonimentlar bo'limi) zamonaviy holda jihozlandi.

Pedagogika markazi professor-o'qituvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish va ularning kutubxonadan unumli foydalanishlari maqsadida ARM telegram kanali yo'lga qo'yildi. ARM fondiga qabul qilingan yangi gazetalar, elektron kitoblar va audio kitoblar muntazam berib boriladi.

Media bo'limida 5ta monoblok kompyuter joylashtirilib, <https://link.springer.com>, <https://nature.com> veb-satlarida Webofscience xalqaro INTERNET tarmog'idan foydalanish yo'lga qo'yildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'grisida"gi PF-158-sonli farmonining tegishli bndlari **ijrosini ta'minlash bo'yicha** Markaz professor-o'qituvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish va ularning kutubxonadan unumli foydalanishlari maqsadida, Axborot resurs markazi tomonidan tashabbuslar amalga oshirilib kelinmoqda.

Markaz professor-o'qituvchilarining arm sammoi.uz saytiga metodik qo'llanmalar, taqdimotlar, ilmiy amaliy anjuman materiallari joylanib borilmoqda. Saytga yuklagan resurslari va ularga murojaatlar reytingi e'lon qilinib borilmoqda.

Pushkin nomidagi viloyat kutubxona va viloyat bolalar kutubxonalari bilan hamkorlik ishlari amalga oshirilib, uchrashuvlar, kitob taqdimotlari tinglovchilar bilan birgalikda sayohatlar uyushtirilib kelinmoqda, O'zbekiston milliy kutubxonasi bilan birgalikda milliy va xorijiy bazalardan foydalanish yo'lga qo'yilgan.



Kafedralar bilan **Biz ilmga chorlaymiz loyihasi** monografiya va qo'llanmalarining targ'ibot taqdimotlari, o'tkazilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-sonli qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha, Markazimizda har juma kuni kasbiy rivojlantirish kuni deb belgilangan, o'qituvchilarimiz o'quv, ilmiy-metodik, adabiyot sharhi o'tkazilib kelinmoqda.

14-yanvar kuni ARMda Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab kitob ko'rgazmasi tashkil etildi. Kitob ko'rgazmasida markaz professor o'qituvchilari ishtirok etdi.

17-yanvar kuni Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida dotsenti.A.Kudratova matematika 2-guruhi tinglovchilari bilan A.S.Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markaziga tashrif buyurishdi.



30-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavalludi kuni munosabati bilan xotira tadbirlari o'tkazildi. Markaz Axborot resurs markazida Islom Karimov asarlari kitob ko'rgazmasi tashkil etildi. Kitob ko'rgazmasida markaz professor o'qituvchilari va tinglovchilari ishtirok etdi.

7-fevral kuni "Birgalikda mutolaa qilamiz" video rolik rukni tashkil qilindi. Turk tarixchisi Ahmad Lutfiy Qozonchining "Bir vijdon uyg'onur" kitobini markaz axborot-resurs markazi hamda Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi E.Po'latova tavsiya qildi.

7-fevral kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori, O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa fanlari doktori Umida Teshabayeva ishtirokida markazda tinglovchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



8-fevral kuni ARM tashabbusi bilan markaz o'qituvchisi N.Xudoyqulova mas'ulligida kutubxonachilar guruhi tinglovchilari A.S.Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markaziga tashrif buyurishdi. Tinglovchilar axborot-kutubxona tarixi, kitobxon uchun xizmat turlari, kitoblar targ'iboti, ish faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



10-fevral kuni Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida o'qituvchilari X.Ravshanova, U.Suvonqulovlar va ARM tomonidan Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari yo'nalishi tinglovchilari bilan Alisher Navoiy tavallud kuniga bag'ishlab davra suhbat tashkil etildi.



11-fevral kuni "Kitob yarmarkasi" tashkil qilindi. Kitob-insonning eng yaxshi do'sti, u kishini fikrlashga undaydi, tafakkur manbaini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga bo'lgan ishtiyoq xalqimizga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi.

13-fevral kuni Mahorat markazida "Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasida professor-o'qituvchilari axborot-kutubxona markazining kitob fondidagi ilmiy, badiiy, metodik qo'llanmalar nashr ishlari bilan yaqindan tanishdilar.

Shu bilan birgalikda ARM hamkorligida Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi M.Yakubjanova rus tili guruhi tinglovchilari markaz kutubxonasida ilg'or ish tajribalar namoyishi tashkil etildi.



14-fevral kuni ARM tomonidan “Bir haftada, bir kitob” loyihasi doirasida Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida ona tili adabiyot fani 2-guruh tinglovchisi A.Qorayev mashhur yozuvchi Jen Sinseroning “NISI o‘zini shakllantirish” kitobining taqdimoti o‘tkazildi.



14-fevral kuni ARM Buyuk davlat arbobi, iste’dodli shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan mahorat markazi professor-o‘qituvchilari hamda tinglovchilari “Zahiriddin Muhammad Bobur - buyuk sarkarda va betakror shoir” nomli tadbir tashkil etildi.

15-fevral kuni Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlari axborot-kutubxona markazining kitob fondidagi ilmiy, badiiy, metodik qo‘llanmalar nashr ishlari bilan yaqindan tanishdilar.

21-fevral kuni “Bir haftada, bir kitob” loyihasi doirasida Kimyo fani tinglovchisi M.Sunnatova Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” kitobining taqdimoti o‘tkazildi.



3-mart kuni Markazi direktori, professor A.Ibragimov tashabbusi bilan hududiy markaz hovlisida “Ochiq kutubxona” tashkil etildi. Mo‘jazgina kutubxonamizda 1000 yaqin badiiy, ilmiy kitoblar malaka oshirishga kelgan kitobxon pedagoglarga taqdim qilindi.

4-mart kuni Kutubxonaga viloyat hokimi o‘rinbosari Xusan To‘xtayev va viloyat Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi boshlig‘i Muzaffar Hamdamovlar tashrif buyurdi va kutubxonaga badiiy kitoblar to‘plamini taqdim etishdi.

6-mart kuni Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrasida o‘qituvchisi Dilfuza Nurmanova Axborot Resurs markazida Boshlang‘ich ta‘lim 4-guruh tinglovchilariga Zulfiyaxonim tavalludining 110 yilligi munosabati bilan davra suhbatini o‘tkazdi.



7-mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

19-mart kuni Navro‘z bayrami munosabati bilan “Kitob yarmarkasi” tashkil qilindi. Kitoblarning keng tarqalishini, yangi nashrlarni tanitish imkoniyatini yaratadi.

26-mart kuni Pedagogika, psixologiya va ta‘lim texnologiyalari kafedrasida professor-o‘qituvchilari, tinglovchilar axborot-kutubxonaga tashrif buyurdi. Ijodkor



o'qituvchilarning kitoblari taqdimoti qilindi. Mirzo Ulug'bek tavallud kuni munosabati bilan kitob ko'rgazmasi tashkil qilindi.

2-aprel kuni Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası, Kutubxonachilar guruh tinglovchilari bilan 2-aprel "Xalqaro bolalar kitobi kuni"ga bag'ishlangan kitob ko'rgazmasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2025-yil 17-martdagi "O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyati davomida qo'llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi **89-sonli buyrug'i ijrosini** ta'minlash maqsadida **ommalashtirish.uz** platformasiga pedagoglar tomonidan **3527 ta ish yuklandi**.





Platformaga joylashtirilgan ishlardan **1622 tasi maktab miqyosida, 1136 tasi tuman miqyosida, 293 tasi viloyat miqyosida, 42 tasi esa respublika miqyosida** tavsiya etilgan. Ushbu jarayonning yakuniy bosqichida esa **22 nafar o'qituvchining ishlari Respublika darajasida rasman ommalashtirilgan.**

Jumladan:



- **Boshlang'ich ta'limdan 1081 ta ish yuklangan, shundan 5 ta ish,**
- **Matematika fanidan 297 ta ish yuklangan, shundan 4 ta ish,**
- **Chet tili (ingliz tili) fanidan 352 ta ish yuklangan, shundan 3 ta ish,**
- **Biologiya fanidan 161 ta yuklangan, shundan 2 ta ish,**
- **Tarix fanidan 178 ta yuklangan, shundan 2 ta ish Respublika miqyosida ommalashgan.**

Past ball qayd etilgan fanlar:

- **Logoped, iqtisodiy bilim asoslari, fransuz va nemis tillari** kabi fanlarda faqat 1-5 oralig'ida ish joylashtirilgan bo'lib, ularning **aksariyati past miqyosda qolgan yoki natija keltirmagan.**

Rad etilgan ishlar bo'yicha holat

Joylashtirilgan **437 ta ish rad** etilgan bo'lib, bu metodik ishlarning:

Ayrim fanlarda rad etilgan ishlar ko'pligi (**masalan, jismoniy tarbiya – 44 ta, matematika – 48 ta**) shu sohalarida metodik yondashuvda aniqlik va sifatni oshirish zarurligini bildiradi.

Respublika darajasida ommalashgan ishlarga ega bo'lgan fanlar quyidagilardir:



•Boshlang'ich ta'lim (5 nafar)
•Matematika (4 nafar)
•Ingliz tili (3 nafar)
•Musiqqa madaniyati (2 nafar)
•Tarix (2 nafar)
•Biologiya (2 nafar)
•Ona tili va adabiyoti (2 nafar)
•Informatika, kimyo, rus tili, tasviriy san'at fanlarida ham <u>bittadan ommalashgan ish mavjud.</u>

Bu ko'rsatkichlar viloyatda bir qator fanlar bo'yicha ilg'or tajriba egalarining borligini va ular namunali ishlar yaratganini ko'rsatadi.



Jamoaviy tarzdagi “Ilg'or o'qituvchilar tanlovi”ni tashkil etish bo'yicha taklif tayyorlash va o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ 231-son qarori Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 5-yanvardagi “Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish” to'g'risidagi 8-sonli buyrug'i Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun “Kasbiy



rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida fan metodistlari tomonidan 8 ta yo‘nalish bo‘yicha “Ilg‘or o‘qituvchilar tanlov”lari 108 marta tashkil etildi.



“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati”, “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil qilishda “Mentorlar guruhi” faoliyatini samarali tashkil etilish.



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi 246-son buyrug'iga muvofiq "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma - bosqich tashki etish bo'yicha Samarqand viloyatidagi tabiiy va aniq fan, boshlang'ich ta'lim, ingliz tili fani o'qituvchilari uchun o'tkazilgan tadbirlarni Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlari bilan birgalikda tashkil etish va nazorat qilish ishlari amalga oshirildi. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida KRK VA KRS bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan namunalar



taqdim etildi.

Samarqand viloyati boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbiri asosida o'quvlar tashkil etildi.

T/r	Viloyat	Tuman	15.02.2025		
			Boshlang'ich ta'lim		
			Reja	Amalda	%
1	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	82	82	100,0%
2		Bulung'ur tumani	71	71	100,0%
3		Kattaqo'rg'on tumani	106	106	100,0%
4		Payqan tumani	103	103	100,0%
5		Kattaqo'rg'on shahar	17	17	100,0%
6		Pastarg'on tumani	128	116	90,6%
7		Ishtixon tumani	95	95	100,0%
8		Naryn tumani	70	70	100,0%
9		Jomboy tumani	56	56	100,0%
10		Nurobod tumani	78	78	100,0%
11		Qo'shrabot tumani	88	88	100,0%
12		Urgut tumani	153	153	100,0%
13		To'yluq tumani	61	61	100,0%
14		Pastachi tumani	47	47	100,0%
15		Samarqand tumani	54	54	100,0%
16		Oqdaryo tumani	55	55	100,0%
JAMI:			1264	1252	99,1%



Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha 15-fevral kuni boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlarida viloyat bo'yicha 1252 nafar (99,1%) ishtirok etgan bo'lsa, viloyat bo'yicha 12 nafar (1,9%) turli xil sabablarga ko'ra o'qituvchilar ishtiroki ta'minlanmagan

Samarqand viloyati ingliz tili fani o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbiri asosida o'quvlar tashkil etildi.

T/r	Viloyat	Tuman	14.03.2025		
			Xorijiy tili		
			Reja	Amalda	%
1	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	81	81	100,0%
2		Bulung'ur tumani	69	68	98,6%
3		Kattaqo'rg'on tumani	100	100	100,0%
4		Payqan tumani	98	96	98,0%
5		Kattaqo'rg'on shahar	17	17	100,0%
6		Pastarg'on tumani	128	127	99,2%
7		Ishtixon tumani	84	84	100,0%
8		Naryn tumani	64	62	96,9%
9		Jomboy tumani	56	56	100,0%
10		Narobod tumani	73	71	97,3%
11		Qo'shrabot tumani	80	78	97,5%
12		Urgut tumani	152	149	98,0%
13		To'yluq tumani	61	61	100,0%
14		Pastachi tumani	47	47	100,0%
15		Samarqand tumani	53	53	100,0%
16		Oqdaryo tumani	55	55	100,0%
JAMI:			1218	1205	98,9%



Ingliz tili fani yo'nalishi bo'yicha 14-mart kuni xorijiy til fan yo'nalishi o'qituvchilar uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlarida viloyat bo'yicha 1205 nafar (98,9%) ishtirok etgan bo'lsa, viloyat bo'yicha 13 nafar (1,1%) turli xil sabablarga ko'ra o'qituvchilar ishtiroki ta'minlanmagan

Videokontent:

Tabiiy va aniq fan mentorlari tomonidan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini yanada mazmunli tashkil qilish maqsadida umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun dars jarayonlarida Singapur tajribasini amaliyotga qo'llash, o'rganilgan bilimlar va 1-2-modellarni qo'llashni hamda 5E modeli asosida



darslarni tashkil qilishni fanlar va sinflar kesimida **40 tadan ortiq videokontent** tayyorlandi.



7.2. Metodik yordam ko'rsatish:

Hamkorlikda ilmiy-amaliy seminarlar va vebinarlar tashkil etish.

1.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi "Umumta'lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 8-sonli buyrug'ining 7-bandi ijrosi yuzasidan Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlari tomonidan 2025-yil yanvar oyida 11ta fevral oyida-11ta, mart oyida -15ta, jami **37ta ilmiy-amaliy seminar va vebinarlar o'tkazildi.**

Aprel oyi - "Metodik impuls va tajriba safari loihasi" shiori osida o'tkazilgan seminarlar oyligi doirasida fan metodistlari tomonidan professor o'qituvchilar bilan hamkorlikda 14ta seminar barcha hududlarda tashkil etildi. Tasdiqlangan reja asosida viloyat miqyosida fan metodistlari tomonidan 6ta vibenar tashkil etildi.



Metodik marafonga maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, tuman(shahar) bo'limlari tomonidan viloyatning 16 ta hududidagi tayanch maktablarida (**2916 nafar**) va pedagogik mahorat markazida (**360 nafar**) umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan **3276 nafar** o'qituvchi jalb etildi. Ular orasida **o'qish savodxonligi,**



tabiiy-ilmiy savodxonlik, matematik savodxonlik va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar faol ishtirok etdilar.



Umumta'lim maktab o'qituvchilarining darslarini onlayn va offlayn kuzatib borish va tahlil qilish.

Fan metodistlari tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarining fanlar kesimida **485 ta dars onlayn va oflayn kuzatib borildi** hamda tahlil qilish natijasida tegishli tavsiyalar berildi. Darslarda aniqlangan bo'shliqlar natijasida metodistlar tomonidan **47 marta seminar-treninglar o'tkazildi.**

Ta'lim sifati yuqori bo'lmagan Pastdarg'om tumanidagi 33-, 38-umumiy o'rta ta'lim maktablarida fan metodistlari tomonidan **240 marta fanlar kesimida darslar tahlil qilindi**, maktab bitiruvchilarining ota-onalari bilan suhbatlar o'tkazildi.

Fan o'qituvchilariga darslarni sifatli tashkil etish yuzasidan tavsiyalar berilib, **150 marta "Mahorat dars"lari tashkil etildi.**



Malaka oshirishga kelgan o'qituvchilar uchun "Metodist soati" tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug'iga asosan Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markaziga malaka oshirish kurslariga kelgan o'qituvchilarga Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlari tomonidan Marshall Cavendish education tavsiyalari asosida darslarni 5E modeli asosida tashkil etish bo'yicha **72 soat "Metodist soat"lari o'tildi.**

"Metodist soati"da o'quvchilarni e'tiborini jalb qilish, mavzu asosida berilgan materiallarni tadqiq qilish, tushuntirish, olingan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash, o'z-o'zini baholash, kritik va kreativ fikrlash, jamoada ishlash va muloqot



qilish ko'nikmalarini shakllantirishda turli metodlardan foydalanish tavsiya etildi hamda amalda ko'rsatib berildi.

Mashg'ulot davomida darslarni zamonaviy usullarda tashkil etish hamda o'quvchilarni fanlarga qiziqtirish yo'lida darslarni 5E modeli asosida tashkil etish tavsiyalari berildi.



Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlar kesimida Metod birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtirib borish.

Fan metodistlari tomonidan Metod birlashma rahbarlarining faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug'iga asosan tavsiyalar berildi. Maktablarda faoliyat yuritayotgan yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib "Ustoz-shogird" an'anasini tizimli tashkil etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Kasbiy rivojlanish kunlari va Kasbiy rivojlanish soatlari tadbirlarini tashkil etish PISA Xalqaro baholash dasturi talablari. PISA 2025 tadqiqotlariga ishtirok etuvchi maktablarning metod birlashma rahbarlari hamda koordinatorlariga tavsiyalar berildi.

Metod birlashma rahbarlarining faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish yuzasidan 68 marta vebinar o'tkazildi.





“Metodik-tur” doirasida ta’lim sifati yuqori bo‘lmagan maktablarga manzilli metodik yordam.

Ta’lim sifati yuqori bo‘lmagan Pastdarg‘om tumani 33-38-umumta’lim maktablariga to‘rt guruhdan iborat fan metodistlari reja asosida:



80 marta mahorat darslari



160 marta seminar treninglar



220 marta dars tahlillari o‘tkazdilar.



**OTM ga kirish ko‘rsatkichini yaxshilash
bo‘yicha amaliy yordam berildi**

Asosiy fanlarning test savollari, metodlarning darslarda qo‘llanish tartibi bo‘yicha onlayn tavsiyalar berib borildi. O‘quvchilarning ota-onalari bilan suhbat o‘tkazildi.



“Mahorat dars”larini tizimli ravishda o‘takzib borish.

XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid murakkab mavzularni o‘zlashtirishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish bo‘yicha 90 marta metodistlar tomonidan mahorat darslar tashkil etildi.

7.3. O‘z o‘zini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy mahoratni oshirish

O‘qituvchilarga “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati”, “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarida metodik yordam ko‘rsatish maqsadida metodistlar hamda tajribali o‘qituvchilar tomonidan namunali videokontentlar yaratish.

Tabiiy va aniq fan mentorlari tomonidan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini yanada mazmunli tashkil qilish maqsadida umumta’lim maktab o‘qituvchilari uchun dars jarayonlarida Singapur tajribasini amaliyotga qo‘llash, o‘rganilgan bilimlar va **1-2-modellarni qo‘llashni hamda 5E modeli** asosida darslarni tashkil qilishni fanlar va sinflar kesimida **11 ta videokontent** tayyorlandi.

Fan metodistlari tomonidan **13 ta metodik tavsiya, 2 ta ilmiy maqola, 3 ta metodik qo‘llanmalar yaratildi.** Darsda samarali foydalanish uchun elektron varianti fan o‘qituvchilariga yetkazildi.



Samarqand viloyatida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining birinchi bosqichi 2024-yilning oktabr oyidan aniq (matematika, informatika) va tabiiy (fizika, biologiya, kimyo, geografiya) fanlar yo‘nalishida, fevral oyidan boshlab ingliz tili va boshlangich ta’lim yo‘nalishi o‘quv jarayonlari boshlandi.



Dars mashg'ulotlari joriy yilda "Kasbiy rivojlanish kuni" oyning 1 va 3 haftasi 3 soatdan 36 soat, "Kasbiy rivojlanish soati" oyning 2 va 4 haftasi 3 soatdan 36 soatdan jami 72 soat o'quv soatlari tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uzuluksizligini ta'minlash uchun zarur shar sharoitlar yaratish, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish va ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash bo'yicha Prezidentimizning 2024 yil 30 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim sifat va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-152 sonli hamda vazirlikning 2024 yil 8 noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyrug'i asosida ishlar tashkil etilgan bo'lib, viloyatda "Metodik mahorat kuni" o'tkazish bo'yicha 34 ta tayanch maktabgacha ta'lim muassasasi (tuman shahardagi bog'chalar



sonidan kelib chiqib), 2 nafar master-trener, 34 nafar mentor-trener, 764 nafar yetkachi-tarbiyachilar va 10838 nafar tarbiyachilar jalb etildi.

Fan metodistlari tomonidan joylarda tashkil etilgan “Kasbiy rivojlanish kuni”, “Kasbiy rivojlanish soati”, “Metodik mahorat kuni”, “Metodik mahorat soati” o‘quvlari tahlil qilinmoqda hamda metodik yordam berilmoqda.



Fan metodistlarining mavjud xalqaro va mahalliy sertifikatlarni bosqichma-bosqich olishlariga erishish hamda fan o‘qituvchilariga yordam ko‘rsatish.

Fan metodistlari o‘z ustida ishlash va kasbiy faoliyatini rivojlantirib borish borasida **23ta sertifikatga** ega bo‘ldilar.



Ta’limiy-raqamli resruslardan maqsadli foydalanish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish.

Metodistlar tomonidan “5E va 3C+1E yondashuvi asosida darslarni tashkil qilish” mavzusi doirasida 2 ta qisqa muddatli kurs tashkil qilindi. Viloyat umumiy o‘rta ta’lim mu assasalari pedagoglarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish, pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish, professional rivojlanishini qo‘llab-



quvvatlash va zamonaviy o'qitish metodikalari asosida metodik yordam ko'rsatilishi uchun "Tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish" mavzusida qisqa muddatli o'quv kursi D.Safarova T.ZAynizoda Z.Pulatovalar tomonidan tabiiy fan tinglovchilariga 10-iyundan 27-mayga qadar rejalashtirilgan oylarida tashkil etildi.



Prezident maktabi va ixtisoslashtirilgan maktablarning ilg'or tajribalarini o'rgatish, ta'limdagi yangi islohotlar bilan tanishtirishga qaratilgan fanlar kesimida 15 ta fandan (Ona tili va adabiyot fani, Tarix fani, Informatika fani, Boshlang'ich ta'lim, Musiqa fani, Geografiya fani, Texnologiya fani, Ingiliz tili fani, Tarbiya fani, Matematika fani, Tasviriy san'at fani, Rus tili fani, Biologiya fani, Fizika fani, **Kimyo fani**) 72 soatlik (*Pedagogik qism, AKT savodxonligi qismi, Ixtisoslik fani, Yangi baholash tizimi*) o'quv dasturini ishlab chiqildi.

Samarqand viloyatida o'zlashtirishi past bo'lgan 69 ta maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarda belgilangan "Pedagoglarning kasbiy-metodik ko'nikmalarini rivojlantirish" mavzusidagi maqsadli o'quv kursi 2025-yil 11-18-iyun kunlari 10ta tumandagi 69 ta umumta'lim maktabi o'qituvchilariga metodik yordam berish uchun Pedagogik mahorat markazining metodik xizmat ko'rsatish bo'lim metodistlari tomonidan "O'qituvchi faoliyatidagi muammolar va unga yechim", "Sinfni boshqarishning zamonaviy usullari" mavzularida jadval asosida biriktirildi va mahorat darslari 6 soat dars o'tildi.





PIRLS, TIMSS, PISA Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish va barcha tumanlarda ta'lim uzluksizligini (seminarlar, trening, maqola, tavsiyalar berish) tashkil etilishini nazorat qilish va taklif-mulohazalar kiritish.

- PISA 2025 xalqaro ta'lim tadqiqotlarining asosiy sinov jarayonlariga tanlab olingan 23 ta umumta'lim maktablariga Pedagogik mahorat markazi, maktabgacha va maktab ta'limi viloyat boshqarmasi va tuman(shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi xodimlaridan tashkil topgan ishchi guruh tashkil qilindi;

- Pedagogik mahorat markazi metodistlari har bir maktabga mas'ul sifatida biriktirildi.

Biriktirilgan mas'ullar va maktab o'qituvchilari bilan hamkorlikda tadqiqotlarda ishtirok etuvchi o'quvchilarning kompyuter savodxonligi, o'qish savodxonligi, tabiiy savodxonligi va matematik savodxonligini oshirish bo'yicha to'garak mashg'ulotlari grafik asosida tashkil qilindi.

-Mahorat markazining professor-o'qituvchilari tomonidan o'tiladigan darslar muntazam tahlil qilib borildi. O'qituvchilarda aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish va yangi metodlarni o'rgatish maqsadida mahorat darslari tashkil qilindi.

Fan metodistlari tomonidan tumanlar kesimida kompyuter savodxonligi, o'qish savodxonligi, tabiiy savodxonligi va matematik savodxonligini oshirish bo'yicha jadval asosida 32 marta seminarlar tashkil etildi.

t/r	Seminar o'tkazish manzili	Vaqt	Mavzu
1.	Oqdaryo 45-maktab	31.01.2025	PISA-2025
2.	Toyloq 28-47-maktab	4.02.2025	PISA-2025
3.	Paxtachi 22-maktab	10.02.2025	PISA-2025
4	Urgut tumani 57-maktab	12.02.2025	PISA-2025
5.	Samarqand tumani 44-52-maktab	14.02.2025	PISA-2025
6.	Narpay tumani 43-maktab	17.02.2025	PISA-2025
7.	Toyloq tuman 47-maktab	18.02.2025	PISA-2025
8.	Toyloq tuman 28-maktab	27.02.2025	PISA-2025
9.	Toyloq tuman 47-maktab	20.03.2025	PISA-2025
10.	Samarqand tumani 44-maktab	14.03.2025	PISA-2025
11.	Toyloq tuman 21-maktab	16.04.2025	PISA-2025



XIII. TASHKIL ETILGAN MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR:

8.1. Tongqi tadbirlar:

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarini ijtimoiylashuv, kreativ, tanqidiy fikrlash, innovatsion, informatsion, psixologik, metodik, badiiy-estetik zavqlanish, texnologik, ekstremal kompetentligini rivojlantirish maqsadida haftaning dushanbadan juma kuniga qadar Jamoani jipslashtirish va ruhlantirish hamda "Tinglovchilarni kutib olish va bilimlar sarhisobi" loyihasi tashkil etildi.

Kafedra	Tadbir nomi	Tadbirga mas'ul	Izoh
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Mahoratga yo'l"	M.Rahimqulova G.Ergasheva T.Tolipova J.Shodiyeva M.Nigmatova D.Nurmanova U.Suvonqulov X.Ravshanova	23 ta
Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "O'zingni namoyon et"	M.Rasulova K.Suvanov D.Kushanova	21 ta
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Tongni tarovat"	G.Fayzullayeva K.Oqilova G.Eshbekova S.Julmatova	19 ta
Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Biz kelajak yaratamiz"	A.Qudratova R.Sanayeva N.Yunusova	16 ta
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası	Jamoamiz tufhasi: "Shukronalik maktabi"	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrası barcha o'qituvchilar	15 ta



8.2. Davra suhbatlari va bayram sanalari bilan bog'liq tadbirlar:



14-yanvar kuni Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tadbir tashkil etildi.



31- yanvar kuni Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida malaka oshirish kursi tinglovchilariga sertifikatlarni topshirish tadbirlari tashkil qilinadi



8-fevral kuni Alisher Navoiyning 584 yilligi munosabati bilan “Navoiyni anglash saodatdir” mavzusida tadbir tashkil etildi.



14-fevral kuni Buyuk davlat arbobi, iste’dodli shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bayram tadbiri tashkil etildi.





18-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.



5-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali tadbiri bo'lib o'tdi.



10-dekabr kuni Davlat Madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan tadbir o'tkazildi.





IX. MAHALLIY VA XORIJIY TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIK:

Hududiy markazda tomonidan hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan 24 ta va xorijiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan 4 ta hamkorlik shartnomalari qilinib konferensiya va seminarlar tashkil etildi. 34 marotaba xorijiy mutaxassislar tomonidan seminar va mahorat darslari tashkil etildi.

Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasini <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1.	Samarqand shahridagi kasb-hunarga o'qitish markazi (Koica)	2024-2026
2	Samarqand davlat universiteti Biologiya fakulteti	2024-2026
3	Samarqand davlat universiteti Geografiya va ekologiya fakulteti	2024-2026
Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasini <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazi	2024-2026
2	Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali	2024-2026
3	Samarqand shahar 19-umumta'lim maktabi	2024-2026
4	BILIG-ilmiy faoliyat	2024-2026
5	Farg'ona, Toshkent, Jizzax viloyatlari PYMO'MMlari	2024-2026
6	Prezident maktabi	2024-2026
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkaz	2024-2026
3	Qashqadaryo viloyati PYMO'MMlari	2024-2026
4	Sirdaryo viloyati PYMO'MMlari	2024-2026
5	O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Davlat FELD'YEGERLIK xizmati Samarqand shahar bo'limi	2024-2026
Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini		



<i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo'linmasi	2023-2025
2	Jizzax davlat pedagogika universiteti	2023-2025
3	Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti	2023-2025
4	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti	2023-2025
<i>Xorijiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Indian Innstitute of Technology Bombay, India	2024-2026 yillar
2	Центр дополнительного образования республики Азербайджон	2024-2026 yillar
<i>Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası</i> <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi	2024-2026
2	Samarqand shaharidagi Prezident maktabi	2024-2026
3	Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti	2024-2026
4	ISFT instituti Samarqand filiali	2024-2026
<i>Axborot-resurs markazi</i> <i>Hududiy tashkilot, ta'lim muassasasi bilan hamkorlik</i>		
1	A.S.Pushkin nomidagi Samarqand viloyat Axborot-kutubxona markazi	2024-2026
2	Samarqand viloyat bolalar kutubxonasi	2024-2026



9.1. Mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan amalga oshirilgan hamkorlik:

10-yanvar kuni Din ishlari bo'yicha qo'mitaning viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Sohbnazar Boymurodov va mas'ullar ishtirokida "Yoshlarga radikal oqimlar diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi" mavzusida targ'ibot va tashviqot tadbiri bo'lib o'tdi.

7-fevral kuni Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida maktabgacha ta'lim yo'nalishi tinglovchilari uchun "Bolalarga yo'naltirilgan va o'yinga asoslangan o'quv dasturini qanday amalga oshirish kerak. Erta bolalik ta'limi" mavzusida Seul milliy universiteti tibbiyot kolleji professori Bumjo Oh hamda Seul milliy universiteti, bolalar rivojlanishi va oilashunoslik kafedras (Ph.D.) Soojung Kimlar ma'ruza qilishdi.



7-fevral kuni Din ishlari bo'yicha qo'mitaning viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i Sohbnazar Boymurodov va mas'ullar ishtirokida "Yoshlarga radikal oqimlar diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi" mavzusida targ'ibot va tashviqot tadbiri bo'lib o'tdi.





8-fevral kuni Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori, O'zbekiston tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa fanlari doktori Umida Teshabayeva ishtirokida Samarqand viloyati maktab kutubxonachilari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



20-fevral kuni Iordaniyaning Qirolicha Raniya O'qituvchilar akademiyasi delegatsiyasining a'zolari Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markaziga tashrif buyurdi va davra suhbatini tashkil etdi.



12- mart kuni Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori A.Ibragimov Janubiy Koreya davlatida Milliy ta'lim universitetida pedagoglar malakasini oshirish bo'yicha Koreya tajribasi bilan tanishishdi.





12-aprel kuni Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazining Xorijlik maslahatchisi Xalqaro darajadagi trener Sonke Dilamine bilan hududiy markaz professor-o'qituvchilari uchun seminar-trening mashg'ulotlari bo'lib o'tmoqda.



22-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand filiali direktori dotsent Sh.Xolboyev davra suhbatini tashkil etildi.



25-aprel kuni Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasidan tashkillashtirilgan "O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari: xalqaro tajriba, innovatsiya va transformatsiya" mavzusidagi anjumanda Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi dotsenti Gulchehra Fayzullayeva o'z ma'ruza qildi.





15-sentabrdan 15-dekabr kunigacha “Klass!” (“Zo‘r!”) xalqaro loyihasi doirasida bir qator muhim tadbirlar tashkil etildi. Rossiyalik professor, pedagogika fanlari doktori, A.I. Gertsen nomidagi RGPU metodisti tomonidan seminar va mahorat darslari tashkil etildi



30-sentabr kuni Turkiya davlatining Mug‘la Unversiteti proffessori Mehmet Najil O‘nal bilan “Turkiya ta’limining kuchli tomonlari” mavzusida seminar-trening o‘tkazildi.



6–17 oktabr kunlari O‘zbekistonda UNICEF, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Learning Innovation Hub hamkorligida amalga oshirilayotgan “Ishonch 2030” loyihasi doirasida Eduten sun’iy intellekt asosidagi matematika platformasini keng joriy etishga qaratilgan treninglar bo‘lib o‘tdi.





12-19-oktabr kunlari Ozorbayjon davlati Guba universitetiga markazdan 3 nafar professor-o'qituvchi va xodimlar malaka oshirib kelishdi.



1-noyabr kuni Xitoyning YUNESKO huzuridagi Ta'lim markazi vakillari Samarqand maktablarida seminarlar o'tdi.



27-noyabrdan 26-noyabr kunlari UNICEF, Islom taraqqiyoti banki va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro seminar-trening tashkil etildi.





27-noyabrdan 9-dekabr kunlari Xitoy davlatining Shanxay shahrida o‘tkazilgan Belt and Road Exchange Project 2025 Autumn session dasturida O‘zbekiston delegatsiyasi Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori Anvar Sobirov, metodist Ulug‘bek Narkulov, metodist Nigora Shanazarova, va Aniq va tabiiy fanlar kafedrası Anvar Samyayev faol ishtirok etdi.





X. MOLIYAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA MODDIY-TEXNIK BAZANING RIVOJLANGANLIK HOLATI:

10.1. Umumiy ma'lumot: raqam va jadvallarda

Markazda 2025-yilda jami yillik tasdiqlangan moliyaviy byudjet xarajatlar smetasi 21 590 120,0 ming so'mga rejalashtirilib, I guruh xarajatlari ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar 14 407 021,0 ming so'm, jumladan: O'qituvchi, professor va xodimlar ustama va rag'batlantirish fondiga 1 741 446,0 ming so'm, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-sonli qaroriga asosan ilmiy darajali dosent va professorlar ustamasiga qo'shimcha 662 554,0 ming so'm, II guruh xarajatlari yagona ijtimoiy to'lovlari uchun 3 571 407,0 ming so'm, IV guruh xarajatlariga moddiy texnikalarni rivojlantirish va saqlab turish xarajatlariga 3 611 692,0 ming so'm mablag' rejalashtirib shundan 470 192,0 ming so'm kommunal to'lovlarga, 25 000,0 ming so'm xizmat safari xarajatlariga, 25 400,0 ming so'm telekommunikatsiya, internet va telefon xizmatlariga, 54 000,0 ming so'm moddiy zaxiralar sotib olishga, 20 000,0 ming so'm kitob va o'quv qo'llanmalar sotib olishga, 30 000,0 ming so'm mebellar va ofis jihozlari remontiga, 40 000,0 ming so'm kompyuter va orgtexnikalar remontiga, 120 000,0 ming so'm o'quv laboratoriya jihozlari, 300 000,0 ming so'm konditsioner, muzlatgich, interaktiv doskalar sotib olishga, 500 000,0 ming so'm markaz binolarini ichki va tashqi qismlarini joriy ta'mirlashga, 120 000,0 ming so'mi har xil xizmatlar, jumladan dezostansiya xizmatlari va turli reklama va o'quv jihozlari yasash xizmatlari uchun, 1 287 000,0 ming so'm xorijiy tillar sertifikatini C1 xarajatlariga mablag'lar rejalashtirilgan.

Haqiqatda markazda 2025-yil 2-chorakda aprel, may, iyun oylarida Moliya-iqtisod va buxgalteriya bo'limining moliyaviy xarajatlari quyidagilar:

I guruh ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar 6 631 405,0 ming so'm to'lab berilgan bo'lib, shundan ish haqi uchun 5 699 436,0 ming so'm, O'qituvchi, professor va xodimlar uchun rag'batlantirish fondidan Navro'z, Qurbon hayit bayramiga ustama va moddiy rag'batlantirish uchun 609 122,0 ming so'm to'langan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrdagi 1030-sonli qaroriga asosan ilmiy darajali dosent va professorlar ustamasiga qo'shimcha 322 846,0 ming so'm to'lab berilgan.

II guruh yagona ijtimoiy to'lovlar uchun 1 653 226,0 ming so'm to'lab berilgan.

IV guruhga jami moddiy texnikalarni rivojlantirish va saqlab turish xarajatlariga 2 018 972,0 ming so'm sarflangan, shundan 255 490,0 ming so'mi kommunal to'lovlarga sarflangan, 14 961,0 ming so'mi xizmat safari xarajatlariga qoplashga to'lab berilgan, 14 800,0 ming so'mi moddiy zaxiralar sotib olishga ishlatilgan, 2 000,0 ming so'm kompyuter va orgtexnikalarni ta'mirlash uchun sarflangan, 74 949,0 ming so'm har xil xizmatlar va turli reklama va o'quv jihozlari yasash xizmatlari uchun to'lab berilgan, 2 890,0 ming so'mga suv hisoblagichlar sotib olingan,



1 107601,0 ming so'mga bir dona ikki tomonlama led ekran, printerlar va interaktiv doskalar sotib olingan, 561081,0 ming so'm xorijiy tillar sertifikatini C1 xarajatlariga mablag'lar to'lab berilgan va bajarilgan.

Markazda 2025-yil 2-chorakda aprel, may, iyun oylarida byudjetdan tashqari xisob raqamidan bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, I guruh xarajatlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarga 366805,0 ming so'mga, II guruh xarajatlariga yagona ijtimoiy to'lovlari 3668,0 ming so'm to'langan, IV guruh xarajatlariga jami moddiy texnikalarni rivojlantirish va saqlab turish xarajatlariga 422 900,0 ming so'm mablag' to'langan bo'lib, shundan 51 000,0 ming so'm kommunal to'lovlarga, 28119,0 ming so'm xizmat safari xarajatlari uchun to'langan, 8 830,0 ming so'm internet va telefon xizmatlari uchun, 51485,0 ming so'm moddiy zaxiralar sotib olish uchun to'langan, 230000,0 ming so'm boshqa texnikalar sotib olish uchun, shundan 44 700,0 ming so'm kutubxona butkasi uchun to'lab berilgan, 6 987,0 ming so'm boshqaruv pulti olish uchun sarflangan, 155 768,0 ming so'm markaz binolari ichki va tashqi qismlarini joriy ta'mirlashga, 5 996,0 ming so'm har xil xizmatlar uchun to'lab berilgan, 6 296,0 ming so'm suv hisoblagichlar sotib olish uchun to'lab berilgan, 840,0 ming so'm boshqa turdagi texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlari uchun to'lab berilgan va bajarilgan.

2025-yilda mablag'lar sarflanishi jami 20901616.0 ming so'mni tashkil etib, 1-guruh ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlarga 13821628.0 ming so'm, 2-guruh yagona ijtimoiy to'lov va soliq to'lovlari 3497872.0 ming so'm, 4-guruhga jami xarajatlarga 3582115.0 ming so'm sarflanib shundan 466158.0 ming so'mi kommunal to'lovlarga, 25400.0 ming so'mi telekommunikatsiya, internet va telefon xizmatlariga, 55903.0 ming so'mi moddiy zaxiralar sotib olishga, 129437.0 ming so'mi ko'rpa-to'shak va choyshablar sotib olishga, 2920.0 ming so'mi qog'oz sotib olishga, 116699.0 ming so'mi har xil xizmatlarga xamda 1116870.0 ming so'm xorijiy tillar sertifikatini C1 xarajatlariga sarflangan. 12 oylik faoliyat davomida byudjet hisobidan jami 2492968.0 ming so'm mablag' ustama va mukofotlar uchun ajratilib shundan 599981.0 ming so'mlik oylik va yillik ustamalar, 1495780.0 ming so'mlik Navro'z bayrami, 8-mart bayrami hamda 1- oktyabr bayramlari munosabati bilan mablag'lar sarflangan.



XI. XO‘JALIK ISHLARI BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR:

11.1. “Yashil makon” loyihasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar:

“Yashil makon” loyihasi bo‘yicha kafedraning yer maydonida “Eng go‘zal gullar” aksiyasi doirasida hududda eng noyob gul ko‘chatlari, daraxt nihollari ekildi.



“Yashil makon” loyihasi asosida kafedra mashg‘ulot xonalariga kirish qismiga “Eng go‘zal gullar” aksiyasi doirasida gullar burchagi tashkil etildi. Kafedra dotsenti M.Raximqulova tashabbusi bilan kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan gullar burchagi tashkil etildi.



Hududda joyalshga gaz taqsimlagich GRP va TPlar texnik nazoratdan o‘tkazilib tegishli tashkilotlarga yuborildi. Markazimizda joylashgan chiqindixonalar o‘z vaqtida tozalanib to‘lov pullari o‘z vaqtida amalga oshirildi. Kommunal xizmati uchun to‘lovlar tegishli tashkilotlarga o‘z vaqtida o‘tkazilib turildi.

Markazimizda 2025-yilda markaz hududini obodonlashtirish yuzasidan reja ishlab chiqildi hamda hududdagi archa daraxtlari to‘liq shakl berildi. Yashil makon dasturi ijrosini bajarish maqsadida markaz hududida 21 tup buta, 6 tup kashtan, 8 ta qayrog‘och va 5 ta lola daraxti ekildi.



Joriy yilda markazning B bino fayasi va C bino 1-qavati to'liq ta'mirlanib zamonaviy mebel jixozlari va orgtexnika vositalari bilan ta'minlandi.






XII. MARKAZ KASABA UYUSHMASI FAOLYATI:

12.1. Kasaba uyushmasi faoliyati haqida umumiy ma'lumot:

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazining 2023-2025-yillarga mo'ljallagan jamoa shartnomasini qayta ko'rib chiqildi va yangi ishga qabul qilingan xodimlar kasaba uyushmasining boshlang'ich tashkilotiga a'zo qilib borildi.



Markaz kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan professor-o'qituvchilar va xodimlar jamoasi bilan "14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan tadbir o'tkazildi.

2025-yil davomida "Direktor kubogi" sport musobaqasi tashkil etildi.



Markazning 2 nafar xodimlariga sog'ligini tiklash maqsadida sixatgohlarga yo'llanma berildi. Markazning 1 nafar xodimi ota-onasining sog'ligini tiklash maqsadida sixatgohlarga yo'llanma, 8 nafar xodimga moddiy yordam berildi.



Pedagogik mahorat markazi professor-o'qituvchilari va xodimlar jamoasida "Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan tadbirlar o'tkazildi.



Joriy yil davomida "Direktor kubogi" sport musobaqasi tashkil etildi.



1-oktabr kuni "Ustoz va murabbiylar" kuni munosabati bilan professor-o'qituvchi va xodimlar rag'batlantirildi.





13.1. Malaka oshirish rejasining bajarilish holati:



1. Yanvar-dekabr oylarida malaka oshirish rejasi umumta'lim maktablarida rejada 10435 nafar tinglovchidan, amalda 10489 nafar tinglovchi qabul qilingan bo'lib 100% ga bajarildi, shundan 271 nafar tinglovchi safdan chiqarildi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida rejada 1263 nafar tinglovchidan, amalda 1245 nafar tinglovchi qabul qilingan bo'lib 98.6% ga bajarildi, shundan 19 nafar tinglovchi safdan chiqarildi.

-Qoldirilgan dars soatlarini o‘zlashtirishning yagona shakli ishlab chiqildi va javob olish uchun ariza yozish tizimi tugatildi.

-Matematika kasbiy va pedagogik qayta tayyorlov (1548 soat), Matematika kasbiy qayta tayyorlov (972 soat), Boshlang'ich kasbiy qayta tayyorlov (972 soat), Texnologiya kasbiy qayta tayyorlov (972 soat), Biologiya kasbiy va pedagogik qayta tayyorlov (1548 soat), Ingliz tili pedagogik qayta tayyorlov (576) soat, Ingliz tili kasbiy qayta tayyorlov (972 soat), Rus tili kasbiy qayta tayyorlov (972 soat) huquqini beruvchi qayta tayyorlov kurslari ochildi.



XIV. INNOVATSIYA VA TASHABBUSLAR:

14.1. Professor-o'qituvchilarning shaxsiy tashabbuslari:

Markazda professor-o'qituvchilar tomonidan 6 ta shaxsiy tashabbuslar joriy etildi.

Shaxsiy tashabbuslar

Rivojlantirish va
yuksalishni
qo'llab-
quvvatlovchi
majmuaviy
tadbirlar



Mahoratli pedagog
loyihasi

Binar dars
loyihasi

Tajribamni siz bilan
bo'lishaman

Kelajak o'qituvchisi
tanlovi

Kitob yarmarkasi

JORIY YIL 10-15-FEBRAL HAFTASIDA	JORIY YIL 14-19-APREL HAFTASIDA
RASULOVA MAFTUNA NASIMBOY QIZI	TAGAYEV G'ANISHER XASANOVICH
TINGLOVCHILAR TURAN JOYIDA NAVRATCHILIKNI MAS'ULIYAT BILAN BAJARGANLIGI VA SUHBATLAR O'TKAZGANLIGI UCHUN	BUXORO VILOYATI PMM TOMONIDAN TASHKIL ETILGAN RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI O'QUV SEMINARIDA "AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINI YORITISHDA TARIXIY KARITALARDAN FOYDALANISH" NOMLI MA'RUZASI UCHUN
	
HAFTA O'QITUVCHISI	HAFTA O'QITUVCHISI
DEB E'TIROF ETILADI	DEB E'TIROF ETILADI



XV. PROFESSOR-O'QITUVCHILAR UCHUN JORIY ETILGAN REYTING VA UNING KO'RSATKICHLARI:

15.1. Ishlab chiqilgan reyting va uning mezonlari:

Markazida har oy 14 ta yo'nalishda reyting tashkil etilib natijalari markaz axborot almashishga qo'yib boriladi. Yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar va xodimlar rag'batlantirildi.

1. Professor-o'qituvchilarning malaka oshirishi va o'z-o'zini rivojlantirishi bo'yicha reyting
2. "Elementar" telegramm kanallar faolligi bo'yicha reyting (Sh.Kuziyeva).
3. Markaz professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligi bo'yicha reting
4. Axborot-resurs markazi elektron kutubxonasiga joylashtirilgan resurslar soni va unga murojaatlar reytingi
5. Markaz professor-o'qituvchilarining ilmiy-uslubiy ishlarini nashr etish samaradorligi bo'yicha reyting
6. Markaz kafedralari va professor-o'qituvchilarining ommaviy-axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlari reytingi
7. Markaz kafedralari va professor-o'qituvchilarining faoliyati natijalariga ko'ra erishilgan e'tiroflar reytingi
8. Markaz professor-o'qituvchilarining ilmiy-uslubiy faoliyati bo'yicha reting
9. Markaz kafedralarining bilim darajasi bo'yicha milliy va xalqaro sertifikatlar, xorijiy stajorovkalar, xorijiy va respublikamiz ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik hamda mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etish reytingi
10. Markaz kafedralari va professor-o'qituvchilari tomonidan ilgari surilgan va muayyan natijalarga erishilgan tashabbuslari reytingi
11. Markaz kafedralari va professor-o'qituvchilari faollik ko'rsatkichlari
12. Markaz professor-o'qituvchilarining kutubxonadan foydalanish reytingi
13. Markaz professor-o'qituvchilarining "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlaridagi faollik reytingi
14. Markaz kafedralari, kafedra mudirlari hamda professor-o'qituvchilari reytingi



Markaz professor-o'qituvchi va xodimlarining "Elementar" telegramm kanallarini yuritish faolligi bo'yicha reytingi

T/r	Elementar kanallar nomi	Mas'ul	Viloyat bo'yicha o'qituvchilar soni	Obunachilar (soni)	Obunachilar (foizi)	Resurs joylangan kunlar	Resurslar soni	Faollik	Avvalgi reytingdagi o'rni	
1	Fizika elementar	Q.Shernozir	1913	931	48,7	89	542	98,1	3	↑
2	Rus tili elementar	M.Yakubjonova	4048	2145	53,0	88	548	97,5	1	↓
3	Geografiya elementar	A.Samoylov	1783	824	46,2	80	320	94,8	5	↑
4	Ta'viriy san'at elementar	K.Savutova	1357	627	46,2	82	409	89,3	7	↑
5	Kutubxona elementar	N.Xudoyqulova	1548	481	31,1	81	406	87,6	8	↑
6	Boshlang'ich ta'lim elementar	M.Bahomqulova	14443	2016	14,0	78	498	85,3	2	↓
7	Tarix elementar	X.Abdurazzoqova	3422	965	28,2	72	496	80,8	4	↓
8	Tarbiya elementar	J.Oripov	967	528	54,6	68	308	78,0	10	↑
9	Ingliz tili elementar	N.Ro'ziyeva	5626	1649	29,3	68	411	75,2	6	↓
10	Biologiya elementar	D.Buralloyeva	2321	848	36,5	60	396	74,2	9	↓
11	Musiqi elementar	M.Rasulova	1193	390	32,7	65	306	71,2	11	↔
12	Kimyo elementar	R.Samatova	1600	955	59,7	62	233	68,0	13	↑
13	O'zbek tili elementar	G.Norboyeva	5073	2016	39,7	61	236	66,4	12	↓
14	Matematika elementar	X.Kaydarov	4910	1403	28,6	58	208	62,8	14	↔
15	Informatika elementar	V.Turolov	2198	855	38,9	55	202	60,3	15	↔
16	MTI	U.Savitskiy	10838	894	8,2	52	259	57,4	16	↓

Markaz "Elementar" telegram kanallar faolligini kafedralar bo'yicha REYTINGI

	Kafedralalar	Kafedra bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich	Kanallar soni	Kanallardagi jami faollik	Avvalgi reytingdagi o'rni	
1	Ijtimoiy va amaliy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi	80,79	5	404	1	↔
2	Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi	79,70	3	239	3	↑
3	Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi	76,27	6	458	4	↑
4	Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasi	71,33	2	143	2	↓